

Yashil

IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 283 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o’tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK
departamenti.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Transformatsiya chelovecheskogo kapitala v usloviyah cifrovizatsii i vnedreniya iskusstvennogo intellekta v bankovskuyu ekosistemu	24
C.C. Ismailov	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
Idrisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari	53
Sultanov Maximud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitora Sunnat kizi	
Faktory, vliyayushchie na uspeshnoe funktsionirovaniye skandinavskoy modeli razvitiya ekonomiki	61
Bohidova Mehri Xasanovna	
Analiz zarubежnogo opyta metodologii otsenki finansovogo potentsiala razvitykh stran	69
Buranova Lola Vahobovna	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarinining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Otsenka vliyaniya nalogovoy sistemy na finansovoe sostoyaniye organizacij	116
Umida Oldashewa	
Teoreticheskoe obosnovanie internet-marketinga v sozialnyx setyax	120
Aripkhodjaev Saidamir Fuzuliddinovich	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ułomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliyohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Kasimova Zilola Gulamiddinovna	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantrish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Shahzod Saidulloev	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadiyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Nurutdinova Zuxra Alisherovna	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Motabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekisonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykbilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv.....	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari.....	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	

MUNDARIJA CODERJAHNIYE CONTENTS



QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNING BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

UO'K: 658.01:658(575.1)
ORCID: 0009-0002-6173-5572

Uzakova Umida Ruziyevna

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ilmiy maqolada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish natijalariga ko'ra, bozor tamoyillariga asoslangan boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil etish mexanizmini shakllantirish, boshqaruvning mayjud tizimini takomillashtirish, boshqaruv usullarini o'zgartirish, boshqaruv tuzilmasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasini yangilash talablari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari, qurilish materiallari bozori, ishlab chiqarish, qurilish mahsuloti, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv mexanizmi, boshqaruv usullari, bozor tamoyillari.

Abstract: In the scientific article, according to the results of improving management and production efficiency in enterprises producing building materials: the formation of a mechanism for organizing management and production based on market principles, improvement of the existing management system, change of management methods, proposals and recommendations on the requirements for updating the technology of management decision-making in the management structure.

Key words: building materials, building materials market, production, construction product, management principles, management mechanism, management methods, market principles.

Аннотация: В научной статье разработаны предложения и рекомендации по вопросам формирования механизма управления и организации производства на предприятиях по производству строительных материалов по результатам повышения эффективности управления и производства: рыночных принципов, совершенствования существующей системы управления, изменения методов управления, требований обновления технологии принятия управленческих решений в структуре управления.

Ключевые слова: строительные материалы, рынок строительных материалов, производство, строительная продукция, принципы управления, механизм управления, методы управления, принципы рынка.

KIRISH

Bugungi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari va ularni boshqarish tizimini olib qaraydigan bo'lsak, bunda ularning joriy davrdagi asosiy qiyinchiliklari samarasini past bo'lgan menejment tizimi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur korxonalardagi iqtisodiy boshqaruv darajasi innovatsion va yashil iqtisodiyot tamoyillari tobora kuchayib borayotgan, resurs va energiya tejamkorligi barcha sohalarda asosiy trendga aylanib borayotgan bozor munosabatlarining hozirgi davr talablariga to'la javob bera olmaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan strategik iqtisodiy islohotlarning yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada sifat ko'satichilarini ta'minlash qurilish materiallari sanoat korxonalarini tubdan isloh qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, qurilish materiallарini ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi.



Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanishi va sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashib borishi, davom etayotgan jahon iqtisodiyotidagi inqiroz va jahon bozoridagi beqaror konyunktura sharoitida korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish ahamiyati va dolzarbliyi yanada oshib bormoqda.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda iqtisodiy boshqaruv hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bozor talablariga ko'ra boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllaridan foydalanishni kun tartibiga qo'ymoqda. Buni ta'minlash yo'llaridan biri bo'lib boshqaruvning mavjud tizimi, tamoyillari va metodlarini o'zgartirish sanaladi. Boshqaruv tuzilmasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasiga alohida talablar qo'yiladi. Bu borada qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasingning o'z ehtiyojlariga moslashtirilgan, uning ishlab chiqarish va mahsulot sotish faoliyatining o'ziga xosliklarini hisobga oladigan korxonani iqtisodiy boshqarishning amaliy metodlari va modellarini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini agar ularning yo'nalishlari bo'yicha rivojlanish tendensiyasini olib qaraydigan bo'lsak, u holda mazkur korxonalar turlicha xususiyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin. Masalan, ayrim qurilish materiallari tabiiy resurslarni ma'lum bir darajada qayta ishlash orqali bozorga olib chiqiladi va ular o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi sababli qurilish materiallari ishlab chiqarishning quyi tarmog'i bo'lib sanaladi. Bularga tabiiy tosh, qum, shag'al kabi tabiiy resurslardan tayyorlanadigan qurilish materiallarni kiritish mumkin. Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, toshni qayta ishlash bilan qurilish materiallarni ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotining tannarxida xomashyo uchun sarf-xarajatlar ayrim hol-larda o'rtacha 70 % va undan yuqori ulushni tashkil etadi. Bu, o'z navbatida, xomashyo tipiga tayyor mahsulot chiqishida katta ahamiyatga ega bo'ladigan uning fizikaviy xossalari va eng muhimi tabiiy toshning narxiga bog'liq bo'ladi.[1] Bundan tashqari, mamlakatimizdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida bunday tabiiy toshni qayta ishlash bilan tayyor mahsulotni chiqarishda uni qayta ishlash jarayonida qo'llaniladigan qurilmalar, texnologik jarayon ham qayta ishlash tannarxiga ta'sir ko'rsatishini hisobga olish lozim bo'ladi.

O'zbekistonda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdag'i energiya tejamkor materiallarni ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda 1 million xonardonli uy-joylar qurish, 5 mlrd AQSh dollarlik loyihalarni amalga oshirish orqali qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish das-turini ishlab chiqish vazifalari belgilangan.[2] Yuqori qo'shilgan qiymatli qurilish materiallarni ishlab chiqarish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, ixtisoslashgan yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish, talab etilayotgan sifatli mahsulot ishlab chiqarish turlarini kengaytirish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi va raqobatbardosh qurilish materiallari hamda mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo'llanilayotgan boshqaruv mexanizmda shu narsa ham yaqqol ko'zga tashlanadiki, bu korxonalardagi boshqaruv apparati zamonaviy boshqaruv metodlari va modellarini joriy etmaganlar, o'z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish, xomashyo ta'minoti hajmlarini rejalash-tirishda, ishlab chiqarish-logistika tuzilmasida zaxiralalarini asoslashda muqobil qarorlarni qabul qilish hamda eng yaxshi variantdag'i qarorning tanlab olinishi jarayonlarini sekinlashtiradi. Yana qo'shimcha qilib aytish mumkinki, korxonalar rahbarlari boshqaruv qarorlarini ko'pchilik vaziyatlarda yetaricha iqtisodiy asoslash o'rniga ularni intuitiv ravishda qabul qilishga odatlanib qolganlar.

Mamlakatimizda so'nggi uch yilda koronavirus pandemiyasi oqibatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyatlarni va qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatidagi subyektiv omillarni hisobga olib korxonalarni iqtisodiy boshqarishning hozirgi bosqichlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish to'g'ridan to'g'ri faoliyatni tashkil etish va boshqarishning samarali shakllaridan foydalanishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bunda mazkur yo'nalishdagi maqsadlarga erishish yo'llaridan biri bo'lib qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud boshqaruv tizimi, tamoyillari va metodlarini o'zgartirish sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi ko'plab korxonalarda shakllantirilgan boshqaruv tizimi o'zida chiziqli-funksional boshqaruv tuzilmalarini namoyon qilib, ular aksariyat hollarda qisqa muddatli natijalarga erishishni



ko'zda tutadi hamda bunday boshqaruv funksiyalari va vazifalari ishlab chiqarish belgilari, xususiyatlariga qarab taqsimlangan, buning ustiga ular boshqaruv elementlari va bo'g'inlariga mos holda qat'iy mustahkamlab qo'yilgan. Mana shu xususiyatlari bilan qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining boshqaruv tizimi hozirgi davr talab va ehtiyojlarga to'la moslasha olmay qolgan. Shuning uchun mazkur korxonalardagi boshqaruvning doimiy an'anaviy funksiyalarni bajarish borasidagi statik (qotib qolgan) boshqaruv tuzilmasini konkret bozor sharoit (vaziyat)lariga va korxonaning o'zining ehtiyojlari qaratilgan, uning ishlab chiqarish va sotish faoliyati xususiyatlarini hisobga oluvchi moslashuvchan, dinamik rivojlanib boruvchi boshqaruv tuzilmasiga aylantirish zarur bo'lmoqda.

"Qurilish materiallari bozori" tushunchasi rossiyalik olim V.A. Jukov fikriga ko'ra "...qurilish materiallari bozorini qurilish materiallari sanoati korxonalari (qurilish xomashyosi, mahsulotlari va tuzilmalari) yakuniy mahsulotlarining aylanish sohasi bo'lib, ular doirasida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning uch turi shakllanadi:

ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi raqobat munosabatlari;

vositachilar o'rtasidagi munosabatlari

mijozlar o'rtasidagi munosabatlari" dan shakllanadi.[3]

Bundan tashqari I.S. Rafael tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "Qurilish materiallari bozori – bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun maxsus sharoitlar, ishtirokchilarning o'ziga xos manfaatlari, individual infratuzilma bilan tavsiflangan munosabatlari tizimi bo'lib, uning doirasida ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, vositachilar, atrofdagi bozor muhiti vakillarining manfaatlari qurilish materiallari va mahsulotlarini sotib olish va sotish bo'yicha barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shakllangan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari muvofiqlashtiriladi".[4]

"Qurilish bozorida qurilish materiallari sanoati korxonasingning raqobatbardoshligi, asosan, kapital qurilishni logistik tizimining mavjudligi va samaradorligi, barcha investitsiya va qurilish sikllari, ya'ni buyurtmani iste'molchiga yetkazib berishdan boshlab qurilish-montaj ishlarining sifati va samaradorligi kabi miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanadi".[5]

Iqtisodiy adabiyotlarda kapital qurilish logistikasining turli jihatlari va qurilishda logistik tizimlarni boshqarish katta ahamiyatga ega. Ushbu yo'naliishda V.V. Ananyev, V.N. Bartenyev, A.G. Belousov, V.V. Volkov, Ye.G. Grebnev, I.L. Gutorova, A.P. Dolgov, V.V. Shyrbakov kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan.[6]

"Subpudratchilik ko'rinishidagi hamkorlikdan foydalanish qurilishni tashkil qilishda muhim bo'lib, qurilish loyihasi qiymatining 90 foizigacha bo'lgan qismi subpudratchilar tomonidan ta'minlangan ishchi kuchi va materialarga, shuningdek, buyurtma asosida amalga oshiriladigan chizmalarga sarflanadi".[7] "Tegishli subpudratchilarni tanlash va ular bilan munosabatlarni boshqarish loyihani bajarilishida hal qiluvchi rolni o'ynaydi, biroq hayratlanarlisi shundaki, bu masalaga faqat keyingi yillardagina e'tibor qaratila boshlandi".[8] "Ilmiy tadqiqot ishlarida qurilish sohasi barqaror rivojlanishi uchun faqat mijozlar va asosiy pudratchilar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash emas, balki subpudratchilar va yetkazib beruvchilar o'rtasida zanjir bo'ylab ishlashni yo'lda qo'yish lozimligi ta'kidlanadi". [9] "Biroq hozirgi davrgacha sheriklik tushunchasi faqat mijoz-pudratchi aloqalari bilan cheklanganligi sababli subpudratchi firmalarning loyiha samaradorligini oshirishga qo'shgan hissasi e'tibordan chetda qolib kelmoqda".[10]

"Ko'plab xorijiy qurilish korxonalari konstruktiv jarayonlar samaradorligini oshirishga harakat qilgani holda raqobat strategiyasini aniqlash orqali korxona tuzilmasini qayta tashkil qilish masalasiga e'tibor qaratishgan". [11] Bu kabi korxonalar tomonidan qabul qilingan strategiyalardan biri bu subpudratchilik bo'lib, bu orqali qurilish jarayonini davomiyligini qisqartirgan holda ma'lum bir qismini kamaytiirsh mumkin, bunda ishning katta qismi uchinchi shaxslarga beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirishning qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati tarkibiga 2020-yil yakunlariga ko'ra 12,5 mingdan ortiq korxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022-yilda bunday korxonalar soni deyarli 13,0 mingga yaqinlashib, ularda yuz mingga yaqin kishi mehnat faoliyatini olib boradi.[12] Bu korxonalar ichidan 57 tasi qurilish sohasi uchun eng asosiy material – sement va portlandsement klinkerini ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, ularning respublikamiz hududi bo'ylab joylashuvi 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadval. Hududlar bo'yicha sement ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni[13].

Nº	Mahsulot nomi	Hudud	Korxonalar soni	Hudud	Korxonalar soni
1	Sement klinkeri	Toshkent viloyati	3	Navoiy viloyati	1
		Farg'ona viloyati	3	Jizzax viloyati	2
2	Portlandsement	Toshkent viloyati	4	Samarqand viloyati	3
		Farg'ona viloyati	12	Qashqdaryo viloyati	1
		Navoiy viloyati	2	Namangan viloyati	2
		Andijon viloyati	3	Jizzax viloyati	2
		Surxondaryo viloyati	2	Buxoro viloyati	1
		Qoraqlpog'iston Respublikasi	2	Farg'ona viloyati	1
3	Tuproqli sement, shlakli sement va xuddi shu tipdag'i gidravlik sement	Andijon viloyati	2	Sirdaryo viloyati	3
		Samarqand viloyati	2	Qashqdaryo viloyati	1
		Namangan viloyati	2	Toshkent shahri	1
		Jizzax viloyati	1		1

Mamlakatimizda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasidagi ko'pchilik korxonalar ma'suliyatini cheklangan jamiyat (MChJ)lar shaklidagi xususiy sektorga tegishli korxonalar bo'lib, bunda ularning moliyaviy va texnik-tehnologik imkoniyatlari yirik korxonalarnikiga nisbatan past bo'lgani uchun ulardagi ishlab chiqarish quvvatlari hamda texnik jihozlanish (qurilmalar va texnologiyalar) darajasi hozirgi davr talab-ehtiyojlariga javob bermasligini ta'kidlab o'tish lozim (1-rasm).

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'nalishlari

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasidagi boshqaruv texnologiyalariga davr talablariga mos keluvchi o'zgartirishlar kiritish:

- boshqaruv jarayonlari (axborotlarni to'plash va qayta ishlash, qarorlarni ishlab chiqish, ularning hisobga olinishi va tahlil qilinishi) texnologiyalarini o'zgartirish;
- korxonada axborotlarning majmuaviy tizimini yaratish;
- zarur bo'lgan operativlik (tezkorlik), asoslanganlik va ishonchlilik bilan boshqaruv qarorlarining metodologiyasi va texnik ta'minotini ishlab chiqish;
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha korxonaning ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatidagi vazifalarning belgilanishi hamda ularning optimal bajarilishini ta'minlovchi iqtisodiy boshqaruv algoritmlari va modellarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish.

Qurilish materiallari korxonasida boshqaruvni tashkil etishga o'zgartirishlar kiritish:


- qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonadagi mavjud boshqaruv tuzilmasini, boshqaruvdagi barcha bo'g'inlar va darajalarning o'zaro harakatlari tamoyillarini o'zgartirish;
- boshqaruv tuzilmalarida bozor munosabatlarining hozirgi davr talablari bajarilishini ta'minlaydigan marketing, boshqaruv hisobi, axborot-tahlil bo'limi kabilarni tashkil etish

Boshqaruv xodimlarining menejment, korxonani boshqarishdagi zamonaliviy texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish va ularning fikrlash doirasini qayta shakllantirish

1-rasm. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.



Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi algoritmdan foydalanishni tavsiya qiladi. Bu algoritm o'z ichiga hozirgi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalaridagi boshqaruv mexanizmi faoliyatini amalga oshirish borasida o'tkir bo'lib turgan muammolarni aniqlash, ularni hal etish yechimlarini topish va bu jarayonni amalga oshirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishda erishiladigan natijalarni qamrab oladi (2-rasm).



2-rasm. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish mexanizmi samaradorligini oshirish algoritmi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida murakkabroq bo'lgan strategik vazifalarni (qurilish materiallari sohasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish; qurilish materiallarini ishlab chiqarishning texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalanishi; ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallari nomenklaturasini kengaytirish va shu kabilar) hal qilishda qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishning kollegial (jamoaviy) shaklidan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizdagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan tamo-yillar va o'zgarishlarning joriy etilishi qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning boshqaruv samaradorligini hamda ularning ichki va tashqi qurilish materiallari bozorlaridagi raqobatbardoshliligi ortishiga katta yordam beradi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning vazifalari quyи ko'rsatkichlardan iborat:

- elementlarini integratsiyasini ta'minlash tashkiliy tuzilmalarda va korxona raqobatbardoshligini ko'tarish;
- samarali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida o'z-o'zini boshqarish va elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash;
- innovatsion tavakkalchilik asosida ishlab chiqarish omillarini doimiy kombinatsiyasini yaratish uchun barqaror turki berish;
- korxona ichki va tashqi muhitining barqarorligini oshirish, shuningdek, korxonalar liberalligi va samarali rivojanishini ta'minlash hisoblanadi.

Korxona rivojanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bir qancha guruhlar munosabatlarini o'z ichiga olgan murakkab integral tizimidan iborat. Uning asosiy funksiyasi tadbirkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarish va boshqaruv bo'g'inlarining o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirishdan iborat. Demak, boshqaruv samaradorligini oshirishda boshqaruv bo'g'inlari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish, innovatsion usullar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini raqobatbardoshligiga erishish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonada ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulot nomenlaturasi bo'yicha sotishning holatini nazorat qilish davriyligi bozor shart-



sharoitlarining barqarorlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bozor barqaror bo'lgan sharoitlarda bunday ma'lumotlar har chorakda bir marta kelib tushishi mumkin. Bozor barqaror bo'lmagan vaziyatlarda esa iqtisodiy nazoratga talab keskin ortib ketishi mumkin va bunday holatlarda korxona rahbariyati bozorga, ishlab chiqarishga va sotishga doir axborotlarni iloji boricha har oy yoki hafta oralig'ida olib turishga ehtiyoj sezadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasining faoliyatiga doir kerakli qarirlarni qabul qilish uchun korxona rahbariyatiga ma'lumotlarni taqdim etish davriyiligi nafaqat bozor shart-sharoitlariiga, balki korxonaning ko'lamiga va ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallari nomenklaturasiga, korxonada va uning tashqi muhitida zarur axborotlarni izlab topish hamda ularni qayta ishlashga ham bog'liq bo'ladi.

Qurilish materiallarni ishlab chiqarish korxonasining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatidagi vazifalar mazkur korxona uchun uni iqtisodiy boshqarishning, xo'jalik faoliyatini diagnostikalash va rivojlanishdagi ratsional yo'nalishlarni asoslash uchun amaliy metodlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish quyidagilarni talab qiladi:

1. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasidagi boshqaruv texnologiyalariga davr talablariga mos keluvchi o'zgartirishlar kiritish – bu quyidagilarni ko'zda tutadi:

- boshqaruv jarayonlari (axborotlarni to'plash va qayta ishlash, qarirlarni ishlab chiqish, ularning hisobga olinishi va tahsil qilinishi) texnologiyalarini o'zgartirish;

- korxonada axborotlarning majmuaviy tizimini yaratish;

- zarur bo'lgan operativlik (tezkorlik), asoslanganlik va ishonchlilik bilan boshqaruv qarorlarining metodologiyasi va texnik ta'minotini ishlab chiqish;

- qurilish materiallarni ishlab chiqarish bo'yicha korxonaning ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatidagi vazifalarning belgilanishi hamda ularning optimal bajarilishini ta'minlovchi iqtisodiy boshqaruv algoritmlari va modellarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish.

2. Qurilish materiallari korxonasida boshqaruvni tashkil etishga o'zgartirishlar kiritish – ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonadagi mavjud boshqaruv tuzilmasini, boshqaruvdagagi barcha bo'g'inlar va darajalarning o'zaro harakatlari tamoyillarini o'zgartirish (boshqaruvdagagi funksiya va vazifalarni qayta ko'rib chiqish;

- boshqaruv jarayonlarini mustaqil bosqichlarga ajratish asosida va iqtisodiy boshqaruv texnologiyasi bilan mos holda boshqaruv apparati xodimlarining mehnatini qayta tashkil etishni amalga oshirish);

- boshqaruv tuzilmalarida bozor munosabatlarining hozirgi davr talablari bajarilishini ta'minlaydigan marketing, boshqaruv hisobi, axborot-tahsil bo'limi (yoki markazi) kabilarni tashkil etish.

3. Boshqaruv personalining menejment, korxonani boshqarishdagi zamонавиу texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish va ularning fikrlash doirasini qayta shakllantirish.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ткач В. Р., Федорин В. Ю., Назаренко С. В. Организация и планирование камнеобрабатывающего производства. – М.: Издательский дом "Руда и металлы" 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi PF-158 sonli Farmoni. <https://lex.uz>
3. Б.А. Жуков Методы управления результативностью рынка строительных материалов на уровне региона. Дисс. кан.эко.наук. Волгоград-2005 г.
4. И.С. Рафаэль "Управление ассортиментным предложением предприятия на основе маркетингового подхода" Автореферат кан.экон.наук Оренбург-2010 10-с.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.11.2018-yildagi "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5577-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
6. Казарновский А.С. Логистизация потоковых процессов в сфере капитального строительства. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Самара: 2004. – стр. 24.
7. Hinze J. and Tracey A. (1994), "The contractor-subcontractor relationship: the subcontractor's view" Journal of Construction Engineering and Management, Vol. 120, No. 2, pp. 274-287.
8. Dainty A.R.J., Briscoe G.H. and Millett S.J. (2001), "New perspectives on construction supply chain integration", Supply Chain Management, Vol. 6, No. 4, pp. 163-173.
9. Briscoe G. and Dainty A. (2005), "Construction supply chain integration: an elusive goal?", Supply Chain Management: An International Journal, Vol. 10, No. 4, pp. 319-326.
10. Dainty A.R.J., Briscoe G.H. and Millett S.J. (2001), "New perspectives on construction supply chain integration", Supply Chain Management, Vol. 6, No. 4, pp. 163-173.
11. Souza F.P. and Formoso C.T. (1993). Levantamento de Estratégias de Produção e Aspectos de Modernização em Empresas de Construção de Edificações. Porto Alegre, 8-9 junho 1993, Anais
12. <https://uza.uz>
13. O'zsanoatqurilish materiallari uyushmasi ma'lumotlari.



14. Saidov M.S., Hasanov A.A. Institutional Characteristics of the Regulation of Natural Monopoly Fields // International Journal of Business Diplomacy and Economy. Volume 2| No 3| March-2023.
15. <https://inter-publishing.com>
16. Saidov M.S. Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies // International Journal of Advanced Research in IT and Engineering. Vol. 10 | No. 11 | Nov 2021. <https://garph.co.uk>
17. Saidov M.S. Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan // International journal on economics, finance and sustainable development. Vol. 5 No. 1 | January 2023.
18. <https://journals.researchparks.org>
19. Saidov M.S. Ways to ensure energy security, IN Uzbekistan // Middle European Scientific Bulletin, Volume 21, Feb,2022.<https://cejsr.academicjournal.io>

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

